SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 12-aprel | 77-8-118-Q/25 | Uzun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining 2025-yil 11-apreldagi 243-8-0-Q/25-sonli “Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subektlarini qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori ijrosini hamda Uzun tumanida global iqtisodiy inqiroz davrida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, xalqaro moliya institutlari mablag‘larini samarali jalb etish va xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni kengaytirish orqali aholi bandligini ta’minlash va budjet daromadlarini oshirish chora-tadbirlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2025-yilning 9-aprel kuni “Hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida global iqtisodiy inqiroz davrida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, xalqaro moliya institutlari mablag‘larini samarali jalb etish va xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni kengaytirish orqali aholi bandligini ta’minlash va budjet daromadlarini oshirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar va berilgan topshiriqlar hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2025-yil 11-apreldagi 243-8-0-Q/25-sonli “Surxondaryo viloyatida tadbirkorlik subektlarini qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab berilgan ustuvor vazifalar va berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida:

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, xalqaro moliya institutlari mablag‘larini samarali jalb etish va xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni kengaytirish orqali aholi bandligini ta’minlash va budjet daromadlarini oshirish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, past quvvatda ishlayotgan korxonalar faoliyatini

tiklash, kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish va tadbirkorlarni mammosini o‘rganish va hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qurilish va muhandislik-kommunikatsiya tizimlari bo‘yicha muammoli masalalar hamda energiya resurslaridan mavjud bo‘lgan qarzdorliklarni hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 3-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash yo‘nalishidagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish, yer maydonlari ajratish va ularning toifasini o‘zgartirish, irrigatsiya tizimlari bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 4-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etishni kengaytirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni o‘zlashtirishni jadallashtirish, eksportni hajmini oshirish va uning geografiyasini kengaytirish, investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish, sanoat zonalari faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 5-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy soha yo‘nalishida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 6-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida turizmni rivojlantirish, madaniy meros ob’ektlaridan samarali foydalanish, xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 7-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ayol tadbirkorlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning faoliyatini kengaytirish, migratsiyadan qaytib kelgan xotin-qizlarni tadbirkorlik va kasbga o‘qitish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha **tuman ishchi guruhi tarkibi 8-ilovaga muvofiq**;

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish yuzasidan tashkil etilgan **tuman shtabi tarkibi 9-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tadbirkorlik sub’ektlarining mavjud muammolarni tezkorlik bilan hal etish;

bunda, soliq va majburiy ijro tizimi, bank kreditlari hamda energiya resurslaridan mavjud bo‘lgan qarzdorliklarni undirishda tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatining uzluksizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish;

zarur hollarda mavjud qarzdorliklarni bo‘lib to‘lash yoki vaqtincha to‘lovlarni kechiktirish ishlarini grafik asosida tashkil etish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashni yo‘lga qo‘yish;

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning moliyaviy instrumentlari va ulardan foydalanish tartib tamoyillari bo‘yicha tadbirkorlik sub’ektlariga tushuntirish berish hamda targ‘ibot ishlarini o‘tkazish orqali biznesni qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish;

“Biznes inkubatori” tomonidan startap va innovatsion loyihalarni amalga oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashni tashkil etish;

mavjud ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish quvvatlaridan samarali foydalanmayotgan *(past quvvatda ishlayotgan)*, “Nol” hajmda hisobot taqdim etgan va vaqtincha faoliyatsiz bo‘lgan korxonalar bo‘yicha doimiy monitoring tizimini tashkil etish orqali ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish;

xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etishni kengaytirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni o‘zlashtirishni jadallashtirish, eksportni hajmini oshirish va uning geografiyasini kengaytirish, investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish, sanoat zonalari faoliyatini samarali tashkil etish;

tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali ularning yillik aylanma mablag‘lari hajmini 1 mlrd. so‘mdan oshirish hisobiga “Chempion tadbirkorlar” sonini ko‘paytirish;

tadbirkorlik qilish istagini bildirgan, biroq yetarli tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan fuqarolarni o‘qitish, ularga kredit mablag‘lari ajratishni yanada kengaytirish, kichik ishlab chiqarish uskuna va texnologiyalarni yetkazib berishni tashkil etish;

tijorat banklarida tadbirkorlar sub’ektlarining investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida kredit hujjatlari yig‘ma jildlarini birgalikda ishlab chiqish amaliyotini joriy etish;

tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida auksion savdolariga chiqariladigan bino-inshootlar va noqishloq yer maydonlaridan foydalanish tartiblari va auksion savdolarini tashkil etish jarayonlari to‘g‘risida hududlarda taqdimotlarni tashkil etish;

bo‘sh turgan yoki vaqtincha foydalanilmayotgan davlat mulki ob’ektlarini tadbirkorlarga ijara asosida foydalanishga berish ishlarini tashkil etish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash yo‘nalishidagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish, yer maydonlari ajratish va ularning toifasini o‘zgartirish ishlarini tashkil etish;

yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy soha yo‘nalishida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish;

turizmni rivojlantirish, madaniy meros ob’ektlaridan samarali foydalanish, xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish;

xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ayol tadbirkorlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning faoliyatini kengaytirish, migratsiyadan qaytib kelgan xotin-qizlarni tadbirkorlik va kasbga o‘qitish ishlarini tashkil etish;

“soliqchi-tadbirkorga ko‘makchi” tamoyili asosida tadbirkorlarni muammolarini o‘rganish va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

4. Uzun tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Xasanov)ga “Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish bo‘yicha shtab” faoliyatini tuman hokimligi binosiga joylashtirish hamda uni zaruriy moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

5. Ishchi guruhlar quyidagilarni amalga oshirsin:

tijorat banklari, mas’ul boshqarma, idoralar rahbarlari hamda tuman hokimligi bilan birgalikda mazkur qaror bilan belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin;

amalga oshirilayotgan ishlar holatini tanqidiy muhokama qilib borsin;

vazifalar ijrosi va erishilgan natijalardan kelib chiqib, mas’ul rahbar va xodimlarni rag‘batlantirish yoki ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan qat’iy choralar ko‘rib borsin;

har oy yakuni bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi, yuzaga kelgan qoloqliklarni bartaraf etish hamda mutasaddi rahbarlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

6. Tuman hokimligi matbuot kotibi (O‘.Mingboyeva) hamda **“Bobotog‘ tongi” gazetasi** (I.Bobokalonov)ga ushbu qarorning maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalar ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **BOZOROV X.SH.**

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, xalqaro moliya institutlari mablag‘larini samarali jalb etish va xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni kengaytirish orqali aholi bandligini ta’minlash va budjet daromadlarini oshirish bo‘yicha tuman

ISHChI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Bozorov Xabibulla Sherdonaqulovich	Tuman hokimi, ***ishchi guruh rahbari***
2.	Xasanov Behzod Usmanovich	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
3.	Boymurov Botir	Tuman prokurori, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
4.	Ergashev Otabek	Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
5.	Xushvaqtov Abdurahmon	Tuman Soliq bo‘limi boshlig‘i, ***ishchi guruh rahbari o‘rinbosari***
6.	Xodjageldiyev Nusratulla	Tuman hokimining o‘rinbosari
7.	Mirzoyev Xurshed	Tuman hokimining o‘rinbosari
8.	Xaydarqulov Nurmahmat	Tuman hokimining o‘rinbosari
9.	Abdanov Ziyodulla Abdug‘aniyevich	Tuman hokimining o‘rinbosari
10.	Allaberdiyev Shodmon	Tuman hokimining o‘rinbosari
11.	Gulboyeva Salomat	Tuman hokimining o‘rinbosari
12.	Xusanov Erkin	ATB Agrobank tuman filiali boshqaruvchisi
13.	Usmanov Abror	ATB Mikrokreditbank tuman filiali boshqaruvchisi
14.	Shukurov Sardor	AT Xalqbank tuman filiali boshqaruvchisi
15.	Amanov Dilmurod	ATB Aloqabank tuman BXO boshqaruvchisi

16.	Lavozimiga koʻra	Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi Tuman hududiy boʻlimi boshligʻi
17.	Rasulov Xamzabek	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi boshligʻi
18.	Mamatqulov Beknazar	Statistika boʻlimi boshligʻi
19.	Sharipov Abdugʻaffor	Adliya boʻlimi boshligʻi
20.	Mingtoʻrayev Zuhriddin Muhiddinovich	Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining tuman boʻlimi boshligʻi
21.	Meliqulov Ulugʻbek	Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tuman boʻlimi boshligʻi
22.	Shodmonov Murodullo	Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻlimi boshligʻi
23.	Turdiyev Xurshid	“Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti filiali direktori
24.	Gʻafforov Alisher	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo hududiy filiali direktori
25.	Sattorov Otaqoʻzi	Uzun tumani yoʻl xoʻjaligi pudrat ta’mirlash foydalanish korxonasi direktori
26.	Kenjayev Faxriddin	“Suvoqova” Ma’suliyati cheklangan jamiyati Uzun tuman filiali boshligʻi
27.	Ibragimov Qandil	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boʻlimi boshligʻi

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud moliyaviy resurslarni o‘zlashtirish, past quvvatda ishlayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, kichik va o‘rta biznesning **iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish** va tadbirkorlarni mammosini o‘rganish va hal etish bo‘yicha

ISHChI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Xasanov Behzod Usmanovich	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***ishchi guruh rahbari***
2.	Djumayev Saidjon Ernazarovich	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, ***ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari***
3.	Lavozimiga ko‘ra	O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi hududiy bo‘limi boshlig‘i, ***ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari***
4.	Mirzayev Abdulaziz Ulug‘bekovich	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining sanoatni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassisi,
5.	Xushvaqtov Abdurahmon	Soliq bo‘limi boshlig‘i
6.	Mingto‘rayev Zuhriddin Muhiddinovich	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi boshlig‘i
7.	Meliqulov Ulug‘bek	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tuman bo‘limi boshlig‘i
8.	Xusanov Erkin	ATB Agrobank tuman filiali boshqaruvchisi
9.	Usmanov Abror	ATB Mikrokreditbank tuman filiali boshqaruvchisi
10.	Shukurov Sardor	AT Xalqbank tuman filiali boshqaruvchisi
11.	Amanov Dilmurod	ATB Aloqabank tuman BXO boshqaruvchisi
12.	Rasulov Xamzabek	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i

13.	Mamatqulov Beknazar	Statistika bo‘limi boshlig‘i
14.	Xoliqov Ihtiyor	Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
15.	Xujamqulov Sirojiddin	Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi boshlig‘i
16.	Mirzayev Ibodulla	Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari hududiy birlashmasi raisi
17.	Turdiyev Umidullo	Uzun Dehqon (oziq-ovqat) bozori MChJ raisi
18.	Abdullayev Fayzulla	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida **qurilish va muhandislik-kommunikatsiya** tizimlari bo‘yicha muammoli masalalar hamda energiya resurslaridan mavjud bo‘lgan qarzdorliklarni hal etish bo‘yicha

ISHChI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Xodjageldiev Nusuratilla Eshdavlatovich	Tuman hokimining o‘rinbosari, *ishchi guruh rahbari*
2.	Shodmonov Murodullo Salohiddinovich	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i, *ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
3.	Turdiev Xurshid Ziyadullaevich	“Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti Uzun filiali rahbari
4.	G‘afforov Alisher Xurramovich	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Uzun filiali rahbari
5.	Mahmudov Atabullo Murodulloevich	“HET” AJ “Energosavdo” filiali Uzun bo‘limi boshlig‘i
6.	Sattorov Otaqo‘zi Sultonovich	Uzun yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi rahbari
7.	Kenjaev Faxriddin Fayzullaevich	“Surxondaryo suv ta’minoti” AJ Uzun bo‘limi boshlig‘i
8.	Ibragimov Qandil Hamroqulovich	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i
9.	Qumriddinov Sayriddin Sayfievich	Qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyasi inspektori
10.	To‘raqulov Tohir	Qurilish sohasidagi hududiy nazorat inspeksiyasi inspektori
11.	Jo‘raev Azim	Uzun mintaqaviy temir yo‘l uzeli boshlig‘i
12.	Razzoqov Nodir Mamasolievich	“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Uzun filiali direktori
13.	Xazratov Murodulla	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Uzun tumanida **qishloq xo‘jaligi** mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash yo‘nalishidagi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish, yer maydonlari ajratish va ularning toifasini o‘zgartirish, irrigatsiya tizimlari bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha

ISHCHI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Nurmahmat Xaydarqulov	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari -qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, **Ishchi guruh rahbari**
2.	Mahmatqul Jo‘raev	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, **Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3.	Zohidjon Sanginov	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi boshlig‘i
4.	Asomiddin Yo‘ldoshev	“Suv yetkazib berish xizmati” DM tuman bo‘limi boshlig‘i
5.	To‘lqin Abdullaev	O‘simliklar karantini va himoyasi tuman bo‘limi boshlig‘i
6.	I.Astanaqulov	Tuman Fermerlar kengashi raisi
7.	Ilhom Xamzaev	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
8.	Lavozimga ko‘ra	Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
9.	Davronbek Sodiqov	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
5-ilova

Uzun tumanida **xalqaro moliya institutlari** mablag‘larini jalb etishni kengaytirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni o‘zlashtirishni jadallashtirish, eksportni hajmini oshirish va uning geografiyasini kengaytirish, investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirish, sanoat zonalari faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha

ISHChI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Mirzoyev Xurshed Boborahimovich	Tuman hokimining o‘rinbosari, *ishchi guruh rahbari*
2.	Lavozimiga ko‘ra	Surxondaryo Tuman hokimligi huzuridagi “Kichik sanoat zonalarini boshqarish yagona direksiyasi” DM Uzun tumani bo‘yicha vakili
3.	Lavozimiga ko‘ra	“O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DK Surxondaryo filiali mas’ul xodimi
4.	Lavozimiga ko‘ra	“UZ test” DUK Surxondaryo filiali mas’ul xodimi
5.	Xusanov Erkin	ATB Agrobank tuman filiali boshqaruvchisi
6.	Usmanov Abror	ATB Mikrokreditbank tuman filiali boshqaruvchisi
7.	Shukurov Sardor	AT Xalqbank tuman filiali boshqaruvchisi
8.	Amanov Dilmurod	ATB Aloqabank tuman BXO boshqaruvchisi
9.	Turdiyev Madiyor	Investitsiyalar, sanoat va savdo tuman bo‘limi bosh mutaxassisi, *ishchi guruh kotibi*

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
6-ilova

Uzun tumanida **yoshlarni tadbirkorlikka** jalb etish, ijtimoiy soha yo‘nalishida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha

ISHCHI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Abdanov Ziyodulla Abdug‘aniyevich	Tuman hokimining o‘rinbosari, *ishchi guruh rahbari*
2.	Tashanov Sayfiddin Mengalievich	Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i, *ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
3.	Ko‘charov Tojimurod Raxmatullaevich	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
4.	Xasanov Alisher Xazratqulovich	Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
5.	Xamraev O‘ral	Uzun tumani 1-sonli kasb-xunar maktabi direktori
6.	Amanov Dilmurod	ATB Aloqabank tuman BXO boshqaruvchisi
7.	Suvonqulov Ortiq Ravzatullaevich	Uzun tumani 2-sonli kasb-xunar maktabi direktori
8.	Xudoyberdiev Sirojiddin	Uzun tumani Pedagogika kolleji direktori v.v.b
9.	Yuldoshov Sayriddin Nosirovich	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
10.	Iminov Ziyodullo Jo‘raevich	Uzun tumanidagi bolalar va o‘smirlar sport maktabi direktori
11.	Abdurashidov Bahodir	Maktabgacha va maktab talimi bo‘limi boshlig‘i
12.	Mehmonqulova Mardona	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
7-ilova

Uzun tumanida **turizmni rivojlantirish**, madaniy meros ob’ektlaridan samarali foydalanish, xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha

ISHCHI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Abdanov Ziyodulla Abdugʻaniyevich	Tuman hokimining o‘rinbosari, *ishchi guruh rahbari*
2.	Lavozimiga koʻra	Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish direksiyasi mas’ul xodimi
3.	Nabiyev Joʻrabek	Madaniyat boʻlimi boshlig‘i
4.	Mingboyeva Oʻgʻiloy	Tuman hokimligi matbuot kotibi
5.	Bobokalonov Ilhom	“Bobotogʻ tongi” gazetasi tahririyati bosh muharriri
6.	Mehmonqulova Mardona	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
8-ilova

Uzun tumanida **xotin-qizlarni** tadbirkorlikka jalb qilish, ayol tadbirkorlarni doimiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning faoliyatini kengaytirish, migratsiyadan qaytib kelgan xotin-qizlarni tadbirkorlik va kasbga o‘qitish bilan bog‘liq muammoli masalalarni o‘rganish hamda hal etish bo‘yicha

ISHCHI GURUHI TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Gulboyeva Salomat Safarovna	Tuman hokimining o‘rinbosari *Ishchi guruh rahbari*
2.	Xolmirzayev Shuhrat Qurbonaliyevich	Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi direktori *Ishchi guruh o‘rinbosari*
3.	Rasulov Xamzabek	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
4.	Abduroziqov Shuhrat	O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Surxondaryo Tumani tashkiloti raisi
5.	Olimova Inobat	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi, ***ishchi guruhi kotibi***

Uzun tumani hokimining
2025-yil 12-apreldagi
77-8-118-Q/25-son qaroriga
9-ilova

Uzun tumanida tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish yuzasidan tashkil etilgan

Tuman ShTAB TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Xasanov Behzod Usmanovich	Tuman hokiminigng birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i, *shtab rahbari*
2.	Djumayev Saidjon Ernazarovich	tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, *shtab rahbari o‘rinbosari*
3.	Lavozimiga ko‘ra	O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi tuman hududiy bo‘limi boshlig‘i
4.	Xurramov Abdulaziz	ATB Agrobank tuman filiali boshqaruvchisi o‘rinbosari
5.	Batirov Husniddin	ATB Mikrokreditbank tuman filiali boshqaruvchisi o‘rinbosari
6.	Mamatova Go‘zal	AT Xalqbank tuman filiali boshqaruvchisi o‘rinbosari
7.	Amanov Dilmurod	ATB Aloqabank tuman BXO boshqaruvchisi
8.	Raxmatov Akmal Ahmadovich	Soliq bo‘limi mas’ul xodimi
9.	Lavozimiga ko‘ra	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi mas’ul xodimi
10.	Norqulov Bahtiyor Suratovich	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi mas’ul xodimi
11.	Normatov Shuhrat	“Hududgaz” gaz ta’minoti filiali yetakchi muhandisi
12.	Saidov Naim	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Uzun hududiy filiali mas’ul xodimi
13.	O‘rinov Nuriddin	“Tuman suv ta’minoti” AJ mas’ul xodimi

14.	Botirov Bahtiyor	Uzun yo‘llardan foydalanish DM bosh muhandisi
15.	Berdiyev Nasriddin	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi o‘rinbosari
16.	Jo‘rayev Hamidullo	Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining tuman bo‘limi mas’ul xodimi
17.	Ziyodullayev Hamidullo	Iqtisodiyot va moliya bosh bo‘limi mas’ul xodimi, *shtab kotibi*